

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshaboyeva	
Abduqayum yo'l doshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasidan foydalanish	326
M.J.Juraboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analistik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalar va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'limga maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
М.С.Ганиева	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lim turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

ABU NASR FOROBIY ASARLARIDA INSONPARVARLIK MASALALARI

ПРОБЛЕМЫ ГУМАНИЗМА В ТВОРЧЕСТЕ АБУ НАСРА ФАРАБИ

PROBLEMS OF HUMANISM IN THE WORKS OF ABU NASR FARABI

Voxidova Munira Tulkinovna¹

¹Buxoro muhandislik – texnologiya instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiq qarashlarida insonga eng oliy darajadagi mavjudot deb baho berilganligi va uning asarlarida insonlar baxtini, farovonligini hamjihatlikda, hamkorlikda ekanligi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется, что в воззрениях Абу Насра Фараби человек оценивался как существо высшего уровня, а в его произведениях счастье и благополучие людей находится в гармонии и сотрудничестве.

Abstract

This article analyzes that in the views of Abu Nasr Farabi, man was assessed as a being of the highest level, and in his works, the happiness and well-being of people is in harmony and cooperation.

Kaliy so'zlar: jamiyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, haqiqatparvarlik, mehnatsevarlik qadriyat, meros, shaxs, tafakkur.

Ключевые слова: общество, гуманизм, патриотизм, просвещение, правдивость, трудолюбие, ценность, наследие, личность, мышление.

Key words: society, humanism, patriotism, education, truthfulness, hard work, value, heritage, personality, thinking.

KIRISH

Buyuk allomalar xalqimiz mentalitetiga xos mehmondo'stlik, kechirimlilik, andishalilik, adolatlilik, halollik, poklik, birovning rizqiga ko'z olaytirmaslik, murosayu-madora, kattaga hurmat, kichikka izzat, xalqning dardu-g'amiga sherik bo'lisch, quvonchu - shodligida, yaxshi va yomon kunlarida birga bo'lisch, insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, haqiqatparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar borki, ular insonparvarlikning hayotiy ko'rinishlaridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida bunday g'oyalarni ulug'lab kelganlar. Chunki, insonparvarlik insonni ma'naviy – axloqiy jihatdan go'zal va barkamol darajaga ko'taradigan yuksak fazilat bo'lganligi uchun ham, ular insonlarni bu ne'matdan bahramand bo'lishga da'vat etdilar. Bunday da'vatlarning yorqin ifodasini Hazrat Abduxoliq G'ijduvoniq, Hazrat Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiq, Ibn Sino, Ibn Rushd va Ibn Xaldunlar ta'limotida uchratamiz. Tasavvuf ahli ta'limotlari asosida shakllangan buyuk mutafakkirlar o'z ta'limotlarida diniy e'tiqod, shaxs erkinligi, hurlik, adolat, barqarorlik hamjihatlik masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Xalqimiz urf-odatlari an'analari buyuk allomalarimiz asarlari, tarixiy yodgorliklar jamiyatimiz uchun faqat meros bo'libgina emas, barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug'i hamdir. Ana shunday alomalardan biri Abu Nasr Forobiq nihoyatda sermahsul olim hisoblangan. U ilmning barcha sohalarida ijod qilgan, buyuk asarlar yozgan. XII-XIII asrlarning yirik olimi Zaxriddin al-Bayhaqiy fikricha, islam o'lkalari olimlari orasida unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas. Forobiyshunos olim Axmad Otash Forobiyning 160 asari nomini keltiradi. Forobiy asarlari to'g'risi-dagi ma'lumotlarni dunyoning turli mamlakatlarida shaharlar, xususan Leningrad, Moskva, Toshkent, Boku, Qozon, Qoxira, Beyrut, Damashq, Istanbul, Berlin, London, Parij, Madrid, Nyu-York, Xaydarobod, Isfaxon, Bombey, Tehron va boshqa ko'plab shaharlarning turli kitobxonalarida davlat va shaxsiy qo'lyozma fondlarida uchratish mumkin.

Uning juda ko'p asarlari g'arb va sharq tillariga arab tilidan-rus, ingliz, fransuz, ispan, turk,

o'zbek, va boshqa tillarga tarjima qilingan va qilinmoqda.

Uning asarlari tematik jihatdan o'rta asr ilmining qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Lekin ba'zi olimlar Forobiyning bu xususiyatlarini inkor qilib, u asosan Aristotel asarlari sharxlovchisi deb unga noto'g'ri baho beradilar. Forobiy asarlarini ikki gruppaga ajratish mumkin.

1. Qadimgi grek filosoflari, tabiatshunoslarining ilmiy meroslarini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan.

2. Fanning turli sohalarga va mustaqil original asarlar, ularning mustaqil ravishda hal qilishga bag'ishlangan risolalar.

Forobiy Aristotelning hamma asarlariga va boshqa grek mutafakkirlarining juda ko'p asarlariga sharhlar yozgan. Lekin Forobiy faqat sharhchi bo'lib qolmasdan, balki juda ko'p qimmatli original asarlar yozgan olim hamdir.

Abu Nasr Forobiy o'z qarashlarida insonga eng oliy darajadagi mayjudot deb baho beradi. Insonlar baxtini, farovonligini hamjihatlikda, hamkorlikda ko'radi. Forobiy insonlarni ikki toifaga: johillar va fozellarga ajratarkan, uningcha jamiyatdagi johil insonlar nodon, ilmsiz, ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz kimsalardir. Ularda insoniylik, e'tiqod, yuksak kamolotdan asar ham yo'q. Ularga baxtu davlat bo'lib ko'rindigan o'tkinchi narsalarni, mol-dunyoni, hirsu-shahvatni, obro', amal, shonshuhratni haqiqiy farovonlik deb o'laydilar. O'zligini bilmaydigan bunday jirkanch, pastkash insonlarga Forobiy jamiyatda o'rinn yo'q deb aytadi va ularga namuna sifatida fozil insonlar jamoasini misol qilib ko'rsatadi. Forobiy o'z qarashlarida odil hukmdorlar haqida ham gapirib, ular jamiyatni va undagi insonlarni baxt sari yetaklashlari zarur deb aytadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'zining bir qator risolalarida kishilarni o'zaro hamkorlikka, halollik, milliy hamjihatlik va diniy insonparvarlikka chaqirdi. U orzu qilgan fazilat jamiyatda inson baxtli yashaydi. Uningcha, «Turli fazil xalqlar va fazil jamiyatlar yagona haqiqiy baxtga ishonsalar-da, turli dinlarni qabul qilishlari mumkin».

Forobiy, shuningdek, fazil shaharni boshqaradigan adolatli hukmdorni orzu qiladi va uning 12 xislatini bayon qiladiki, uning deyarli har bir qirrasi bag'rikenglik va ninsonparvarlik fazilati bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk alloma shunday yozadi:

“Shaharga hokim (rahbar) bo'ladigan odam Allohdan boshqa hech kimga bo'y sunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan 12 ta xislat - fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosida nuqson xalal bermasligi lozim. Aksincha, u sog' - salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim”. Bizning barkamol avlod konsepsiymizga ko'ra, inson barkamolligi asosan 3 ta narsada: aqliy, ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishlikda aks etadi. Forobiy konsepsiysi bo'yicha, ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan ko'rgan eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur. To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar - bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib sezib olishi zarur. Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chirolyi so'zlar bilan ifodalay olishi zarur. Oltinchi, u ustozlardan ta'llim olishga bilim ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish - o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur. Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda o'zini tiya oladigan bo'lishi, qimor yoki boshqa o'ynlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur. Sakkizinchi, u Haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'lonni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur. To'qqizinchi, u o'z qadrini biluvchi va nomus oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi tug'ma oliyhimmat bo'lishi ulug' ishlarga intilishi zarur. O'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. O'n birinchi, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruchchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruchchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgan holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur. O'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirida qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqoqlik va

hadiksirashga yo'l qo'ymasligi zarur. Forobiy nazdidagi odil rahbarning aynan mana shu xislatilarida rahbarning insonparvarlik va bag'rikenglik xususiyati ko'rsatib berilgan.

Biroq, bu xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol ekanligiga ko'zi yetgan Forobiy bunday tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlarni "juda kam uchraydigan nodir insonlar" – deb ataydi. Mabodo fozillar shahrida shunday barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi. Ba'zi mahallarda fozillar shahrida bunday odam yo'q bo'lib qolganida ham (vafot etganida yohud boshqa joyga ketgan vaqtida) ana shu imom (hokim yohud uning izdoshlari) chiqqargan qonun va tartiblarga amal qilinadi.

Avvalgi imom o'rniiga kelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan xislatlar, fazilatlar yoshlikdan shakllangan bo'lishi zarur. Bu keyingi imom (rahbar)da yana oltita fazilat hosil qilishi zarur:

Birinchi – donishmandlik.

Ikkinci – avvalgi imomlar o'rnatgan qonun va tartiblarni xotirida yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilishi uchun quvvai hofizaga ega bo'lish.

Uchinchi – agar avvalgi imomlar davridan biror (bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo'lsa, bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo'lish.

To'rtinchi - hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko'zga tutmagan voqealarni oldindan ko'ra bilish uchun bashoratgo'ylik xislatiga ega bo'lish, bu xislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo'lida kerak bo'ladi.

Beshinchi – avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek, o'zi chiqqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg'in so'zlash – notiqlik xislatiga ega bo'lish.

Oltinchi – zarur hollarda harb ishlariga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo'lish, ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jangu - jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san'atni yaxshi bilish.

Mabodo, shu xislatlarning barchasini o'zida jamlagan bir odam topilmasa, ikki kishi birgalashib shu xislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni birida bu, ikkinchida u, uchinchisida yana boshqa xislatlar bo'lsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo'yish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Forobiy ta'llimotiga asoslangan insonparvarlik quyidagi fazilatlarda namoyon bo'ladi:

- o'ziga va boshqalarga nisbatan izzat-hurmat, sabr-qanoat, halollik, poklik, mardlik, jasorat,
- o'z nafsi, mayllarini, hohish-istikclarini jilovlay olish,
- insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va adolatparvarlik,
- o'zaro hurmat-izzat, murosayu-madora, mehr-oqibat,
- kechirimlilik, saxovatpeshalik, beozorlik, xolislik,
- hayotni, tinchlikni, sog'likni, odamlarni, tabiatni qadrlash.

Alloma ta'llimotidagi bir qator insonparvarlik g'oyalari kishilarni o'zaro hamkorlikka, hamjihatlilikka, undaydi. Olimning fikricha, «haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergen xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir – birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi». Shuningdek, u kishilarni insonparvar, adolatli bulishga da'vat e'tib shunday deydi: «Axloqli kishi o'z tabiatini bilan adolatni sevadigan, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan karaydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsiz oqibatlarni yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin».

Forobiy ta'llimotining asosiy mazmuni millati, yoshi, tili, jinsi, irqidan qat'iy nazar, odamlarni o'zaro hurmat, ishonch, olijanoblik va insonparvarlikka chorlaydi. Zero, insonparvar kishi o'zini emas, o'zgalar osoyishtaligini, tinchligini, omonligini o'yaydi. Ularga nisbatan sabrli bo'ladi. Ularning ra'yini qaytarmaydi, ularning dardini o'ziniki deb biladi, mushkulini oson qiladi. Ulug'lik, bosiqlik, kamtarlik, saxiylik, ko'ngilchanlik, muloyimlik, mulohazalilik insonparvarlikning ko'rinishlaridir. Forobiy ta'llimotidagi g'oyalari kishilarni ana shunday fazilatli, insonparvar bo'lishga da'vat etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аль-Форобий. Социально-этическое трактаты. Алма-Ата. 1973. с. 135.
2. Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». Т. А. Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 1993. 160 бет.
3. Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». Т. А. Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 1993. 187-бет.
4. Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». Т. А. Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 1993. 186-187 бетлар.